

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA  
BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Ilmiy ishlar va xalqaro**  
**aloqalar bo‘yicha prorektor**  
**R. Shirinova**  
**2026-yil**



**23.00.02 – “Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar” ixtisosligi bo‘yicha oliy  
ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kirish imtihoni**

**DASTURI**

**Toshkent – 2026**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ilmiy-uslubiy kengashining 2025-yil 27-oktyabrdagi 2-sonli majlis bayonnomasi bilan ma’qullangan.

**Tuzuvchilar:**

- A. Yuldashev – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, tarix fanlari doktori
- G. Sa’diyeva – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**Taqrizchilar:**

- D.Sayfullayev – siyosiy fanlar doktori, professor
- V.Qo‘chqorov – siyosiy fanlar doktori, professor

## KIRISH

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlar mohiyatini xalqimizga yetkazish, mintaqa va xalqaro hayotda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tabiatini tushunish, mavjud jarayonlarni ilmiy-metodologik jihatdan o‘rganish va tizimli tahlil etish siyosiy fanlar oldida turgan dolzarb vazifaga aylandi.

Bugungi kunda «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladigan malakali kadrlarni tayyorlash muhim hisoblanadi. Malakali mutaxassis kadrlar yuqori ilmiy-pedagogik salohiyatga ega, muayyan fan sohasi bo‘yicha zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagan, ushbu bilimlarini o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashga safarbar etuvchi shaxslarga bog‘liqdir. Buning uchun ta’lim yo‘nalish va ixtisosliklari muntazam ravishda takomillashtirilib borilishi taqozo etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishda jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya muhim o‘rin tutishini e’tirof etib o‘tgan holda, buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash zarurligini, “Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”” deya ta’kidladilar.

Shu bois, “Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar” ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon dasturini tuzishda mualliflar guruhi yuqorida qayd etilgan talablardan kelib chiqildi. Dasturning maqsadi tadqiqotchilarga siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalarning nazariy asoslari to‘g‘risida ma’lumot berish, siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalarni tadqiq etishning asosiy usul va vositalari bilan tanishtirish, shuningdek, tashqi va ichki tahdidlar sharoitida siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslarini to‘liq egallagan va shu sohada amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdir.

Bu dastur siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalarning nazariy asoslari, siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar sohalarda tadqiqotlar olib borishning asosiy uslub va vositalaridan foydalanish, siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalarning asosiy ko‘rinishlari va turlari, siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalarning zamonaviy yo‘nalishlari va mexanizmlari, siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalarning monitoringi tizimini tashkil etish usullari bilan tanishtiradi.

## **I BO'LIM. SIYOSIY INSTITUTLAR**

### **Davlat**

Davlatning mohiyati. "Davlat" atamasining keng va tor ma'no-mazmuni. Davlatning umumiy belgilari. Davlatning vujudga kelish sabablari. Huquqiy davlat tushunchasi. Davlatning rivojlanish tamoyillari. Davlat rivojlanishining yo'nalishlari. Davlatning ichki va tashqi vazifalari. Davlat tuzilishining tarkibi. Davlatning tarixiy va zamonaviy shakllari.

O'zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi, davlat boshqaruvi shakli, davlatning asosiy vazifalari.

### **Siyosiy hokimiyat**

Siyosiy hokimiyat tabiati, resurslari va tipologiyasi. Hokimiyat tushunchasi, ta'rifi. Teleologik, bixevioristik, psixologik, tarkibiy funksional, reliatsion talqinlar. Subyekt va obyekt hokimiyatning egalari, agentlari sifatida. Hokimiyat manbalari tushunchasi. Manbalarning turlari: utilitar, majburiy va me'yoriy. Hokimiyat manbalarining turkumlashishi: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-axborot, majburiy, demografik manbalar.

### **Siyosiy tizim**

Siyosiy tizim tushunchasi. Siyosiy tizimning tadqiqot vositasi sifatida tushunish. Siyosiy tizim hokimiyat mexanizmi sifatida. Siyosiy tizimning turkumlashuvi: an'anaviy, zamonaviy, totalitar. Ochiq va yopiq siyosiy tizimlar. Avtokratik va demokratik siyosiy tizimlar.

### **Fuqarolik jamiyati**

Fuqarolik jamiyati tushunchasi va mazmun mohiyati. Fuqarolik jamiyatining vujudga kelishi. Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslari. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat. Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy sheriklik. Ijtimoiy sheriklikning huquqiy va siyosiy asoslari. Fuqarolik jamiyati institutlari. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi ishtiroki. Fuqarolar manfaatlarining institutlashuvi. Fuqarolarning fuqarolik jamiyati institutlariga birlashishi omillari va xususiyatlari.

### **Nodavlat notijorat tashkilotlar**

Nodavlat notijorat tashkilotlar tushunchasi. Nodavlat notijorat tashkilotlar huquqiy va tashkiliy asoslari. Nodavlat notijorat tashkilotlarining tuzilishi. Nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyat shakllari. Nodavlat notijorat tashkilotlarning moliyalashtirish manbalari. Nodavlat notijorat tashkilotlarning jamiyat ahamiyatiga molik qarorlar qabul qilinishdagi ishtiroki

Nodavlat notijorat tashkilotlarning jamiyatda jamoatchilik nazorati o'rnatishdagi roli

### **Partiya va partiya tizimlari**

Siyosiy partiyalarning kelib chiqishi va mohiyati. Vakolatlik g'oyasi va tamoyillari. Partiyaning siyosiy tizimidagi o'rni va vazifalari. Partiya va manfaatlar guruhlari. Siyosiy partiyalarning turkumlash tajribasi. Partiyalararo raqobatning o'ziga xos xususiyatlari. Partiya rivojlanishdagi eng yangi yo'nalishlar. Siyosiy partiya turlari: totalitar va demokratik partiyalarning mohiyati va ko'rinishlari. Partiya tizimlari: bir partiyaviylik, ikki partiyaviylik va ko'p partiyaviylik. Sharq va G'arbdagi siyosiy partiyalarning rivojlanishidagi zamonaviy yo'nalishlar.

## **Ijtimoiy harakatlar**

Ijtimoiy harakatlarning mohiyati va manbalari. Ularning jamiyatning ijtimoiy asoslarini o'zgartiruvchi qudratli kuch ekanligi.

Ijtimoiy harakatlar jamiyatning yashash usuli sifatida. Hozirgi zamon ijtimoiy harakatlarning xilma-xil ko'rinishlari: urushga qarshi, siyosiy bloklarga qo'shilmalik, ekologik, milliy mustaqillik huquqini himoya qilish, tadbirkorlik, dehqonlar, ziyolilar, xotin-qizlar va yoshlar harakati.

Ijtimoiy harakatlarning turlari: konservativ va norozilik, islohotchi va inqilobiy harakatlar.

## **Siyosiy elita**

Siyosiy elita konsepsiyasi. jamiyatning elitarligi, elita to'g'risidagi qarashlar: demokratik elitizm, elita plyuralizmi konsepsiyalari. elitalarning so'l liberal nazariyasi. elitaning tabaqalanishi. Uning boshqaruvi va muxolif, oliy, o'rta ma'rifiy elitaga bo'linganligi. Siyosiy elitaning ijtimoiy vakilligi. elitalarning tanlash tizimi.

## **Siyosiy yetakchilik**

Siyosiy yetakchilik tushunchasi va asosiy konsepsiyalari. Yetakchilik tushunchasi. Tarixda yetakchilik g'oyalari. Yetakchilik ta'rifi. Yetakchilikning obyektiv va subyektiv tomonlari. Siyosiy yetakchilik tabiati. Belgilar nazariyasi. Omilining analitik konsepsiyasi, konstituentlar nazariyasi, psixologik konsepsiyalar va yetakchilikning interaktiv tahlili.

Yetakchilik turlari: oddiy, buyuk, avtoritar, demokratik, ratsional oshkora. Yetakchilikning yig'ma fazilatlaridan kirib chiquvchi qiyofalari: bo'ydoqlar, xizmatchi, savdogar, o't o'chiruvchi. Yetakchining vazifalari.

## **Zamonaviy demokratiya**

Mumtoz liberalizm demokratiyasi. Liberalizm davlat tuzilishininig g'oyaviy asosi sifatida. Liberal demokratiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Jamoaviy demokratiya. Demokratiya to'g'risida Russo konsepsiyasi. Jamoaviy demokratiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Demokratiyaning plyuralistik nazariyasi. Zamonaviy demokratiyada ommaning roli. Vakillik demokratiyasi. Bevosita demokratiya.

## **II BO‘LIM. SIYOSIY JARAYONLAR**

### **Siyosiy jarayonlar tushunchasi, mohiyati**

Siyosiy jarayonlarning obyekti. Siyosiy ong, siyosiy xabardorlik, siyosiy faoliyat va ichki hamda tashqi siyosat bilan bog‘liq barcha harakatlar siyosiy jarayonlarning siyosiy tizim sifatida rivojlanishida. Siyosiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Siyosiy jarayonlarning umumiy xususiyatlari. Siyosiy jarayonlar manbai.

### **Siyosiy jarayonlarning strukturasi**

Umumiy siyosiy jarayonlar mohiyati. Xususiy siyosiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Siyosiy jarayonlarning shakllari. Tadrijiy, inqilobiy, inqirozli siyosiy jarayonlarning xususiyatlari. Xususiy siyosiy jarayonlarning tipologiyasi. Asosiy siyosiy jarayonlar mohiyati. Mahalliy siyosiy jarayonlar mazmuni. Barqaror va beqaror siyosiy jarayonlar jihatlari. Siyosiy jarayon mavjudligining tarkibi. Turg‘unlik tartibi rivojlanish tartibi, inqiroz tartibining mazmun mohiyati. Siyosiy jarayonlarning turkumlanishi

### **Siyosiy faollik**

Siyosiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati. Siyosiy faollikning shakllanishi omillari. Siyosiy faollikning shakllari. Siyosiy faollikning darajalari. Siyosiy passivlik. Absentizmning mohiyati.

Fuqaroviy faollik tushunchasi. Fuqaroviy faollikning o‘ziga xos xususiyatlari. Fuqaroviy faollikning institutsional va noinstitutsional shakllari. Fuqaroviy faollikning zamonaviy ko‘rinishlari.

### **Siyosiy ishtirok**

Siyosiy ishtirokning asosiy turlari. Bevosita va bilvosita siyosiy ishtirokning o‘ziga xosligi. Umumiy va cheklangan siyosiy ishtirokning mazmun mohiyati. Ixtiyoriy va majburiy siyosiy ishtirokning shakllanishi omillari. An’anaviy, faol va passiv siyosiy ishtirokning zamonaviy jihatlari. Legitim va nolegitim siyosiy ishtirok. Qonuniy va noqonuniy siyosiy ishtirok. Siyosiy ishtirok shakllari. Siyosiy ishtirok vazifalari. Siyosiy faoliyat subyektlari. Siyosiy faoliyat subyektlariga ta’sir etish uslublari. Siyosiy faoliyat mexanizmlari. Siyosat subyektlarining siyosiy faoliyati mazmun mohiyati.

### **Siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayoni**

Siyosiy qarorlarni qabul qilish bosqichlari. Siyosiy qarorlar qabul qilish vositalari. Siyosiy qarorlarni qabul qilishga tayyorgarlikning o‘ziga xos xususiyatlari. Qarorlarni qabul qilishning mas’uliyati, Qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish tartibi. Siyosiy qarorlar qabul qilish usullari.

### **Siyosiy inqiroz va siyosiy ixtilof**

“Siyosiy ixtilof” tushunchalari va nazariyalari. Ixtiloflar tasnifi, iqtisodiy, ijtimoiy, ichki siyosiy, tashqi siyosiy, hududiy, til xususidagi ixtiloflar. Siyosiy ixtiloflarning asosiy turlari: manfaatlar, qadriyatlar, tenglashtirish, gorizontal va vertikal ixtiloflar. Hozirgi zamondagi ixtiloflarning kelib chiqishi sabablari va ularni hal etish yo‘llari.

Siyosiy inqiroz: mohiyati, manba belgilari. Siyosiy inqirozning ko‘rinishlari, monandlik, legitimlik ishtirok, taqsimlash inqirozlari. Hozirgi zamondagi siyosiy inqirozlar va ularni hal qilishning yo‘llari. Inqilobiy va evolyutsion usullar.

### **Saylovlar**

Saylovlar tushunchasi va ularning demokratik siyosiy tizimdagi roli. Demokratik sharoitda saylovlarning funksiyalari. Saylov huquqi tamoyili. Saylovlarni tashkil etish mezonlari. Saylov jarayonining asosiy bosqichlari. Saylovlarning me‘yoriy asoslari. Majoritar saylov tizimi. Proporsional saylov tizimi. Aralash va konsensusli tizimlar. Saylovlarga tayyorgarlik. Nomzodlar ko‘rsatish. Tashviqot kampaniyasi. Ovoz berish va saylovni yakunlash.

### **Siyosiy rivojlanish**

Siyosiy rivojlanish tushunchasi. Siyosiy rivojlanishning asosiy mezonlari. Siyosiy rivojlanish inqirozlari. O‘xshashlik inqirozi. Moddiy va madaniy ne‘matlarni taqsimlash inqirozi. Ishtirok inqirozi. “Kirib borish” inqirozi. Legitimlik inqirozining asosiy xususiyatlari.

### **Siyosiy bashorat**

Siyosiy bashorat (prognoz) tushunchasi. Siyosiy bashorat obyekt va subyekt. Siyosiy bashorat tayyorlash jarayoni. Siyosiy bashorat funksiyalari va vazifalari. Izlanuvchan bashoratlar. Tahliliy bashoratlar. Umumiy-me‘yoriy bashoratlar. Ogohlantiruvchi bashoratlar. Qisqa muddatli, o‘rtacha muddatli, uzoq muddatli va juda uzoq muddatli bashoratlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Ichki siyosiy va tashqi siyosiy bashoratlarning mazmun-mohiyati. Bashorat obyektlarini aniqlash. Bashoratlash tamoyillari va usullari.

### **Siyosiy zamonaviylashuv va uning asosiy yo‘nalishlari**

Siyosiy zamonaviylashuv: tushunchasi, taraqqiyot bosqichlari. G‘arb siyosatshunosligining siyosiy zamonaviylashuv haqida. Konservativ yo‘nalish (S.Xantington). Siyosiy zamonaviylashuvning liberal yo‘nalishi. R.Dalning poliarxiya nazariyasi S.Eyzenshtandt va G.Almond siyosiy taraqqiyot mazmuni haqida. Zamonaviy institutsializatsiyalashuv. MDH mamlakatlaridagi siyosiy zamonaviylashuv va ularning xususiyatlari. O‘zbekistonda siyosiy zamonaviylashuvning asosiy belgilari va o‘ziga xos xususiyatlari.

### **Jamoatchilik nazorati**

Jamoatchilik nazorati tushunchasi, uning mazmun-mohiyati. Jamoatchilik nazoratining huquqiy va siyosiy asoslari. Jamoatchilik nazorati faoliyatining jamiyat siyosiy taraqqiyotidagi o‘rni. Jamoatchilik nazorati borasidagi qonunchilikning shakllanishi va takomillashuvi. O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasidagi islohotlar.

### **III BO'LIM. SIYOSIY TEXNOLOGIYALAR**

#### **Siyosiy texnologiyalar tushunchasi va mohiyati**

Siyosiy jarayonlarda texnologiyalarning roli. Siyosiy texnologiyalarning mohiyati va o'ziga xos jihatlari. Muammoli va bahsli siyosiy vaziyatlarda siyosiy texnologiyalarga ehtiyoj sezilishi. Siyosiy leksikonda ba'zan siyosiy texnologiyalarning, siyosiy marketingi "bozor" deb nomlanishi. Texnologiyalarning o'zida siyosiy injeneriya formasini aks ettiruvchi aniq faoliyatlar algoritmi sifatida. Siyosiy texnologiyalar tuzilishi: maxsus bilimlar, faoliyat uslublari va protseduralari, turli xil texnikaviy – resrusiv komponentlar.

Siyosiy texnologiyalarning komponentlari. Siyosiy muhandislikning subyektiv asosini tashkil etuvchi siyosiy loyihalashtirish jihatlari.

#### **Siyosiy tahlil va siyosiy tahlil metodlari**

Siyosiy tahlilning mohiyati va o'ziga xosligi. Siyosiy tadqiqotlarda siyosiy tahlilning o'rni va roli. Siyosiy tahlil o'zining predmeti va o'ziga xosliklari bilan tatbiqiy fan sifatida. Tatbiqiy bilim sifatida siyosiy tahlilning dastlab subyekt oldida muammolarni o'rganishga kiritilishi. Texnolog-analitikning odatda voqelarni tushuntiruvchi va amaliy maslahatlarni shakllantiruvchi mutaxassis sifatida tushunilishi.

Siyosiy tahlilning tuzilishi. Siyosiy tahlil tadqiqot yondashuvining darajalari. Siyosiy tahlil jarayoni. Siyosiy tahlil muammolarining konseptualashtirish bosqichi.

#### **Siyosiy kommunikatsiya**

Siyosiy kommunikatsiya tushunchasi va uning mohiyati. Siyosiy kommunikatsiya va uning siyosiy jarayondagi o'rni. Siyosiy kommunikatsiya vositalari tizimi va funksiyalari. Elektron hukumat va uning mohiyati. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy jarayonlarga ta'siri. O'zbekistonda siyosiy kommunikatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi.

**23.00.02 – “Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar” ixtisosligi bo‘yicha namunaviy SAVOLLARI**

1. Siyosiy hokimiyat tabiati, resurslari va tipologiyasi.
2. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi ishtiroki.
3. Siyosiy texnologiyalar tuzilishi: maxsus bilimlar, faoliyat uslublari va protseduralari, turli xil texnikaviy – resursiv komponentlar.
4. Fuqaroviy faollikning institutsional va noinstitutSIONAL shakllari.
5. Liberalizm davlat tuzilishining g‘oyaviy asosi sifatida.
6. Siyosiy partiya turlari: totalitar va demokratik partiyalarning mohiyati va ko‘rinishlari.
7. Mahalliy siyosiy jarayonlar mazmuni.
8. Siyosiy tadqiqotlarda siyosiy tahlilining o‘rni va roli.
9. Fuqarolarning fuqarolik jamiyati institutlariga birlashishi omillari va xususiyatlari.
10. Ijtimoiy xarakatlarning mohiyati va manbalari
11. Siyosiy jarayonlarning shakllari.
12. Elektron hukumat va uning mohiyati.
13. Siyosiy elitaning ijtimoiy vakilligi. elitalarning tanlash tizimi.
14. Liberal demokratiyaning o‘ziga xos xususiyatlari.
15. Siyosiy ishtirokning asosiy turlari.
16. Muammoli va bahsli siyosiy vaziyatlarda siyosiy texnologiyalarga ehtiyoj sezilishi.
17. O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi, davlat boshqaruvi shakli, davlatning asosiy vazifalari.
18. Demokratiyaning plyuralistik nazariyasi.
19. Fuqaroviy faollikning institutsional va noinstitutSIONAL shakllari.
20. Siyosiy texnologiyalarning komponentlari.
21. Avtokratik va demokratik siyosiy tizimlar.
22. Siyosiy jarayonlar manbai.
23. Siyosiy inqiroz: mohiyati, manba belgilari.
24. Siyosiy kommunikatsiya vositalari tizimi va funksiyalari.
25. Hokimiyat manbalarining turkumlashishi: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-axborot, majburiy, demografik manbalar.
26. Siyosiy jarayon mavjudligining tarkibi.
27. Siyosiy muhandislikning subyektiv asosini tashkil etuvchi siyosiy loyihalashtirish jihatlari.
28. Siyosiy kommunikatsiya tushunchasi va uning mohiyati.
29. Davlatning tarixiy va zamonaviy shakllari.
30. Ijtimoiy sheriklikning huquqiy va siyosiy asoslari.
31. Turg‘unlik tartibi rivojlanish tartibi, inqiroz tartibining mazmun mohiyati.
32. Siyosiy texnologiyalarning mohiyati va o‘ziga xos jihatlari.
33. Subyekt va obyekt hokimiyatning egalari, agentlari sifatida.
34. Siyosiy rivojlanishning asosiy mezonlari. Siyosiy rivojlanish inqirozlari.
35. Siyosiy tahlil muammolarining konseptuallashtirish bosqichi.
36. Siyosiy kommunikatsiya va uning siyosiy jarayondagi o‘rni.
37. Davlatning umumiy belgilari.
38. Siyosiy tizimning turkumlashuvi: an‘anaviy, zamonaviy, totalitar.
39. Tadrijiy, inqilobiy, inqirozli siyosiy jarayonlarning xususiyatlari.
40. O‘zbekistonda siyosiy kommunikatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi.
41. Nodavlat notijorat tashkilotlarning moliyalashtirish manbalari.
42. Partiya tizimlari: bir partiyaviylik, ikki partiyaviylik va ko‘p partiyaviylik.
43. Siyosiy jarayonlarning turkumlanishi.
44. Siyosiy tahlilning tuzilishi.
45. Ochiq va yopiq siyosiy tizimlar.

46. Siyosiy bashorat tayyorlash jarayoni.
47. Siyosiy jarayonlarning umumiy xususiyatlari.
48. Siyosiy tahlil o'zining predmeti va o'ziga xosliklari bilan tatbiqiy fan sifatida.
49. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat.
50. Siyosiy elita konsepsiyasi.
51. Siyosiy faollikning shakllanishi omillari.
52. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy jarayonlarga ta'siri.
53. Fuqarolarning fuqarolik jamiyati institutlariga birlashishi omillari va xususiyatlari.
54. Sharq va G'arbdagi siyosiy partiyalarning rivojlanishidagi zamonaviy yo'nalishlar.
55. Jamoatchilik nazorati tushunchasi, uning mazmun-mohiyati
56. Siyosiy kommunikatsiya vositalari tizimi va funksiyalari.

## FOYDALANILADIGAN DARSLIKLAR VA O‘QUV QO‘LLANMALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-yil 28-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2015-yil 9-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni / O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, №1. 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018-y., 07/18/3775/1313-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024-yildagi PQ-358-son – Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018-yildagi O‘RQ-474-son – Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun
8. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi. 2019-yil 25-iyun.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son – “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son – 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
11. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son – O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
12. “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-son Farmoni. «Xalq so‘zi» gazetasining 2017-yil 9-sentabrdagi 180 (6874)-soni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, №6. 2017.
14. “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5430-son Farmoni. – T.: 2018-yil 4-may.
15. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (27.05.2019).
16. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
17. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 491 b.
18. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. 1-jild, – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
19. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom, – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

20. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom, – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 396 b.
21. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild, – T.: O‘zbekiston, 2020. – 456 b.
22. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘qituvchi, 2021. – 184 b.
23. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
24. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston [Matn] / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024. – 464 bet.
25. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.
26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi 2023-yil 19-sentyabr.
27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi videomurojaati 2021-yil 21-sentyabr.
28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi 2020-yil 23-sentyabr.
29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi 2017-yil 19-sentyabr.
30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29-dekabr 2020-yil.
31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 28-dekabr 2018-yil
32. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar. - Toshkent: “Yoshlar nashriyoti uyi”, 2019.
33. Nizom-ul-Mulk. Siyosatnoma. Toshkent, 2016.
34. Makiavelli N. Hukmdor. Toshkent, 2017.
35. Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik. Navro‘z. O‘quv qo‘llanma. 2014.
36. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi. – T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi.
37. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
38. M.Bekmurodov, Q.Quranboyev, L.Tangriyev. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G‘ofur G‘ulom, 2017.
39. Jumayev R., Yovqochev Sh. Siyosiy texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDSHI, 2018, 232 b.
40. Omonov B. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. Monografiya. – T.: Aloqachi, 2019, 208 b.
41. Mirzaaxmedov K.M. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi jarayonlarini demokratlashtirish evolyutsiyasi. Monografiya, – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2019, 212 bet.
42. Utamurodov A. va boshqalar. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. Darslik. -T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2020, 391 bet.
43. O‘tamurodov A. va mualliflar jamoasi. Fuqarolik jamiyati. T.: “Mumtoz so‘z”, 2018 – 395 bet.
44. Djumayev R.Z., Madaminova D.I., Mustapova X.I., Suyunova B.S. Siyosiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDSHI, 2020, 148 b.
45. Qirg‘izboyev M. Zamonaviy saylov texnologiyalari. Monografiya, –T.: O‘zbekiston 2021, 7.5 b.t.
46. Bo‘tayev U.X. O‘zbekiston milliy manfaatlarini ta’minlashning konseptual asoslari. Monografiya, –T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2021, 205 bet.
47. Atamuratov M.U. Boshqaruv kompetensiyalarining o‘ziga xos jihatlari. Monografiya, –T.: Yosh avlod matbaa, 2021, – 168 b.

48. Saltelli, A. and Di Fiore, M. (eds) (2023) The politics of modelling. Numbers between science and policy. Oxford: Oxford University Press.
49. Политология: политические институты, процессы и технологии. Учебное пособие (Федякин А.В. и др.). – М.: Проспект, 2021.
50. Nurmuhammad Samijonov. Xalqaro munosabatlarda sun'iy intellekt: raqamli iqtisodiyot, xalqaro xavfsizlik va ijtimoiy hayotda sun'iy intellekt. – GlobeEdit, 2023.
51. Jo'rayev Q. O'zbekiston Respublikasi va jahon hamjamiyati. Ijtimoiy-siyosiy nashr. Ilmiy-ommabop maqolalar. – T.: "Oltin meros press", 2024. 456 bet.
52. Qirg'izboyev M. Siyosatshunoslik: oliy o'quv yurtlari talabalari darslik / M. Qirg'izboyev; O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. – Toshkent: "Sharq", 2024. – 504 b.
53. Политические институты, процессы и технологии: теория и кейсы. Учебник / С. А. Мельков, Ж. Ю. Данкова, В. О. Евсеев [и др.] ; под ред. С. А. Мелькова. – М.: КноРус, 2025.

#### **Elektron ta'lim resurslari:**

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.yuz.uz>
4. <http://www.strategy.uz>
5. <https://president.uz>
6. <http://www.edu.uz>
7. <http://www.lib.bimm.uz>
8. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
9. [www.parlament.gov.uz](http://www.parlament.gov.uz)